


BUXORO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr)*

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-noyabr oyida chakana savdo tovar aylanmasi 8 956,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 273,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 126,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 7 682,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 5,4 % ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 933,4 mlrd. so 'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 % ga kamaygan) tashkil etdi.


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari G'ijduvon va Vobkent tumalarida qayd etildi.

*dastlabki ma'lumot

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, %




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,3 % ga o'sdi va 1 273,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 14,2 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 7 682,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 5,4 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 85,8 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, %

2018-yil
yanvar-noyabr




2019-yil
yanvar-noyabr



Yirik korxonalar
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, %



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari
Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining ulushi bo‘yicha Buxoro (99,6 %), Shofirkon (99,0 %), Olot (99,1 %), Peshko‘ (99,2 %), Romitan (98,6 %), Jondor (98,5 %) tumanlari, Kogon shahar (97,9 %) va Qorako‘l (98,1 %), Qorovulbozor (94,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 14,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Vobkent (30,1 %), Kogon (28,3 %), G‘ijduvon (14,1 %) tumanlari va Buxoro shahriga (25,2 %) to‘g‘ri kelmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi


	Yirik korxonalar (mlrd.so‘m)	O ‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari (mlrd. so ‘m)	O ‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %
Buxoro viloyati	1 273,2	126,3	7 682,9	105,4
<i>tumanlar</i>				
Olot	2,0	104,6	233,9	114,3
Buxoro	1,9	110,8	452,9	104,6
Vobkent	156,9	185,2	364,2	96,3
G‘ijduvon	231,5	117,4	1 405,1	117,2
Kogon	45,8	176,2	116,1	91,0
Qorako‘l	14,3	90,2	761,0	107,1
Qorovulbozor	8,1	70,9	127,3	111,9
Peshko‘	2,6	122,2	314,3	104,8
Romitan	7,0	69,7	499,2	106,7
Jondor	7,1	37,2	461,3	106,0
Shofirkon	3,4	62,8	326,2	104,8
<i>shahar</i>				
Buxoro sh.	786,4	126,4	2 333,4	100,1
Kogon sh.	6,1	60,3	288,0	103,0

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %




Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, %

2018-yil
yanvar-noyabr



2019-yil
yanvar-noyabr



Davlat mulki
 Nodavlat mulki

Mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mlrd. so'm)	davlat mulki (mlrd. so'm)
Buxoro viloyati	8 956,1	8 952,8	3,3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	233,9	233,9	-
Buxoro	452,9	452,9	-
Vobkent	364,2	364,2	-
G'ijduvon	1 405,1	1 405,1	-
Kogon	116,1	116,1	-
Qorako'l	761,0	761,0	-
Qorovulbozor	127,3	127,3	-
Peshko'	314,3	314,3	-
Romitan	499,2	499,2	-
Jondor	461,3	461,3	-
Shofirkon	326,2	326,2	-
Buxoro sh.	2 333,4	2 330,1	3,3
Kogon sh.	288,0	288,0	-


2019-yil yanvar-noyabr oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 4 700,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,3 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi viloyatlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so ‘m	O ‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %
Buxoro viloyati	4 700,4	106,3
<i>tumanlar:</i>		
Olot	2 407,8	112,2
Buxoro	2 770,1	102,6
Vobkent	3 778,6	110,6
G‘ijduvon	5 444,6	115,8
Kogon	2 105,7	102,9
Qorako‘l	4 780,1	104,9
Qorovulbozor	7 480,6	106,9
Peshko‘	2 618,7	102,9
Romitan	3 629,2	104,1
Jondor	2 719,9	101,2
Shofirkon	1 881,0	102,5
Buxoro sh.	11 189,8	104,8
Kogon sh.	4 837,6	100,7


Shuningdek, 2019-yilning yanvar-noyabr oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,1 % ni tashkil etib, 278,1 mlrd. so‘mga yetdi yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,7 % o‘sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 89,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi (mlrd. so 'm)




Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi, %

2018-yil
yanvar- noyabr



2019-yil
yanvar- noyabr



Davlat mulki

Nodavlat mulki

**Mulkchilik shakllari bo'yicha
ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi**


	Jami (mln. so'm)	<i>shu jumladan:</i>	
		nodavlat mulki (mln. so'm)	davlat mulki (mln. so'm)
Buxoro viloyati	278 064,4	276 006,0	58,4
<i>tumanlar:</i>			
Olot	5 549,2	5 549,2	-
Buxoro	12 180,6	12 180,6	-
Vobkent	13 358,4	13 358,4	-
G 'ijduvon	43 807,3	43 807,3	-
Kogon	3 160,7	3 160,7	-
Qorako'l	27 826,6	27 826,6	-
Qorovulbozor	10 499,2	10 499,2	-
Peshko'	5 935,3	5 935,3	-
Romitan	18 221,5	18 221,5	-
Jondor	13 672,1	13 672,1	-
Shofirkon	11 339,7	11 339,7	-
Buxoro sh.	101 672,5	101 614,1	58,4
Kogon sh.	10 841,2	10 841,2	-

BUXORO VILOYAT ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr)

Yil boshidan Buxoro viloyati bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 974,1 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,0 % ga kamaydi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-noyabr oyi yakunlariga ko'ra, 1 375,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,7 % ga oshdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 69,7 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslanganda, Buxoro (99,7 %), Peshko' (89,7 %) tumanlarida va Kogon (93,2 %), Buxoro (90,5 %) shaharlarida yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %



Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 30,3 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Qorovulbozor (99,1 %), Kogon (85,8 %), Qorako'l (77,7 %), va Shofirkon (60,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi


	Jami (mlrd. soʻm)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar (mlrd. soʻm)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik korxonalar (mlrd. soʻm)	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, %
Buxoro viloyati	1 974,1	99,0	599,0	83,6	1 375,1	107,7
<i>tumanlar:</i>						
Olot	74,7	100,7	19,7	105,1	55,0	102,0
Buxoro	90,4	102,8	0,2	123,4	90,2	102,8
Vobkent	71,5	105,9	44,4	98,6	27,1	102,3
Gʻijduvon	107,6	109,6	29,4	133,8	78,1	103,0
Kogon	314,9	97,5	270,1	102,0	44,8	100,8
Qorako'l	30,4	126,6	23,6	139,6	6,8	102,3
Qorovulbozor	40,3	24,2	40,0	22,7	0,3	100,7
Peshko'	274,0	105,8	28,3	144,6	245,7	102,5
Romitan	98,9	99,9	20,2	117,7	78,7	101,3
Jondor	117,8	100,9	30,4	107,6	87,4	100,3
Shofirkon	43,3	126,7	26,4	145,1	16,9	104,2
<i>shahar</i>						
Buxoro sh.	679,1	112,3	64,2	87,0	614,9	115,4
Kogon sh.	31,2	81,2	2,1	18,9	29,0	103,0

Mulkchilik shakllari bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mlrd. so'm)	davlat mulki (mlrd. so'm)
Buxoro viloyati	1 974,1	1 974,1	-
<i>tumanlar:</i>			
Olot	74,7	74,7	-
Buxoro	90,4	90,4	-
Vobkent	71,5	71,5	-
G'ijduvon	107,6	107,6	-
Kogon	314,9	314,9	-
Qorovulbozor	30,4	30,4	-
Qorako'l	40,3	40,3	-
Peshko'	274,0	274,0	-
Romitan	98,9	98,9	-
Jondor	117,8	117,8	-
Shofirkon	43,3	43,3	-
<i>shahar</i>			
Buxoro sh.	679,1	679,1	-
Kogon sh.	31,2	31,2	-

Joriy yilning yanvar-noyabr oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi 1 974,1 mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega sub'ektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi 1 974,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, %



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Qorovulbozor (24,2 %), Kogon tumanlarida (97,5 %) va Kogon shahrida (81,2 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bolimi
Tel.:71-230-83-22
65-223-75-63